

G'OYALARNING JAMIYAT RIVOJIDAGI O'ZIGA XOS O'RNI.

Rashidova Muslima Alisher qizi
O'zbekiston milliy universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada g'oyalarning evolyutsiyasi, ularning insoniyat rivojidagi o'rni, kichik va katta jamiyatlarning taraqqiyotida g'oyalarning muhimligi va vayronkor g'oyalarning salbiy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqola so'ngida muallifning shaxsiy xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: g'oyalarning evolyutsiyasi, bunyodkor g'oya, vayronkor g'oya, g'oyalarning xilma-xilligi, g'oyalarning asosiy maqsadlari.

THE UNQUE PLACE OF IDEAS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

ANNOTATION

This article discusses the evolution of ideas, their role in human development, the importance of ideas in the development of small and large societies, and the negative aspects of destructive ideas. Also, the author's personal conclusions are given at the end of the article.

Key words : evolution of ideas, constructive idea, destructive idea, variety of ideas, main goals of ideas.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ibtidoiy jamoa tuzimidan tortib toki fuqorolik jamiyatigacha bo'lgan davrlarning barchasida insonlar va jamiyat uchun ma'lum bir g'oyalar yetakchi ro'l o'ynab kelgan. Tarixiy silvizatsiyalarning paydo bo'lishi, taraqqiy etishi yoxud tanazzulga yuz tutishi tub mohiyatida ijtimoiy ong mahsuli hisoblangan g'oyalar katta ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi yunon mutafakkiri Platonning qarashlariga ko'ra "g'oya" ("eydos") haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning in'ikosidir. Platon g'oyalar dunyosini narsalar dunyosidan ustun qo'yadi, chunki g'oyalar dunyosi ideal narsalardir. Inson g'oyalar dunyosi bilan soyalar dunyosi o'rtasidagi zotdir. Uning ruxi g'oyalar dunyosiga, jismoniy tanasi soyalar dunyosiga mansubdir¹. Yana bir yunon faylasufi Arestotelning g'oya borasidagi fikrlari, "G'oyalar olamining narsalar olamidan ajratilishi haqidagi Platon fikrlariga zidligi bilan

¹ Platon. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/platon-uz/>; Mir idey i mir veshey u Platona. <http://rushist.com/index.php/philosophical-articles/2214-mir-idej-i-mir-veshchej-u-platona>.

bog'liq bo'lib, Arestotel "g'oya" materiyaning o'ziga xos shakli degan fikrni ilgari suradi. Materiya va shakl ajralmas, ular bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi. Tabiatda na sof, shaklsiz materiya, na nomoddiy g'oyalar mavjud"².

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarib aytadigan bo'lsak, ikkala faylasuf ham inson uchun g'oyalarning naqadar muhimligini ta'kidlaydi. Biz g'oya tushunchasiga ilmiy nigoh tashlaydigan bo'lsak, "G'oya – yunoncha idea, tushuncha, tasvir", degan ma'nolarni anglatadi. Demak u inson ongining mahsuli hisoblanadi.

G'oyalarning ilk ko'rinishlari eramizdan avvalgi davrlarga borib taqalishini inobatga oladigan bo'lsak, o'sha davr g'oyalariga totemizm, animizm, fetishizm diniy qarashlaridagi g'oyalar misol bo'la oladi. Bu g'oyalar diniy qarashlar bilan uyg'unlashgan holda ibtidoiy jamiyat insonlarining ongining va turmush tarzining o'sishiga xizmat qildi. Buni biz o'sha davr g'orlar va toshlarga chizilgan rasmlar, dafn marosimlari va moddiy manabalar orqali bilib olishimiz mumkin. Bunday tarixiy yodgorliklarga Lasko, Altamir, Kapva va yurtimizdagi Zaroutsoy qoyatosh rasmlarini kiritish mumkin. Ibtidoiy jamiyat davrining g'oyalari bevosita insonlarning turmush tarziga ham o'z tasirini ko'rsatib, mehnat qurollarining takomillashuvida, inson va tabiat aloqalarining har tomonlama chambarchas bog'lanishida beqiyos o'rin egalladi.

Keyinchalik yuqoridagi g'oyalar negizida hinduizm (hindistonliklarning ko'pxudolikka asoslangan dini), iudaizm (yahudiylik dini), konfutsiylik (xitoy faylasufi Konfutsiy tomonidan yaratilgan ta'limot), sintoizm (yaponlarning milliy dini) kabi diniy qarashlar paydo bo'lib, ularning ham o'z mafkura va g'oyalari shakllana boshladi. Bu diniy qarashlarning asosi o'sha tabiiy makonning xususiyatlari, insonlarning yashash tarziga hamohang tarzda bo'lgan. Buning natijasida yer yuzining turli mintaqalarida turlicha qarashlar va bir-biridan farq qiladigan g'oyalarning shakllanishi paydo bo'ldi. Turfa g'oyalar esa o'z navbatida turlicha oqimlarning shakllanishi uchun zamin bo'ldi. Monizm (olamning asosi bitta degan tushuncha), dualizm (olam xudo tomonidan yaratilgan, lekin uning rivojlanishi o'zining moddiy xususiyatlariga ham bog'liq degan tushuncha), plyuralizm (olam ko'plab narsalarning birikishidan hosil bo'lganligini ta'kidlovchi tushuncha), idealizm (ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustun qo'yuvchi tushuncha), materializm (moddiy tushunchalarni ilgari suruvchi oqim) kabi bir nechta oqimlar vujudaga kelib, insonlarning ongini rivojlanayotganidan dalolat bera boshladi. Shuning bilan bu g'oyalar o'sh davrlarda falsafiy tafakkurning ham yuqori cho'qilarga chiqayotganini anglatadi.

Yer yuzida faqat ijobiy, insonning o'z turmush va tafakkurini o'sturuvchi g'oyalar bilan bir qatorda vayronkor mafkura va g'oyalar ham asta-sekinlik bilan bo'lsada shakllandi. Bunday g'oyalarga fashizm, shovinizm, nigilizm (ma'naviy meyorlarni tanolmaydi), kosmopolitizm (milliy qadriyatlar va an'analarni tan olmaydi,

² Aristotelevskaya metafizika. <http://rushist.com/index.php/philosophical-articles/2425-filosofiya-aristotelya-kratko#c1>.

vatansizlikni targ'ib qiladi) o'rinli misol bo'ladi. Bunday vayronkor g'oyalarning ba'zilar tezda yo'qolib ketdi, ammo ba'zilari milliy g'oyaga aylandi. Dastlab Fransiya imperatori Napoleon Bonapart shaxsini ilohiylashtirilishidan boshlangan shovinizm g'oyasi 1830-yillarga kelib keng quloq yoydi va natijada "Buyuk millatchilik shovinizmi", "Irqi shovinizm" tushunchalari vujudga keldi. Keyinchalik bu g'oya ko'plab insonlarning halokatiga sababchi bo'ldi. Shuningdek XX asrning 30-yillari fashizmning Italiya va Germaniya kabi davlatlarda yuqori o'ringa chiqib, milliy g'oyaga aylanishi insoniyat uchun misilsiz musibatlarni olib keldi. Birgina Italiya davlatida 1910-yilda millatchilik, tajovuzkorlik, yovuzlikni targ'ibotchisiga ayalangan "Milliy g'oya" jurnalining nashr etilishi ham bu davlatdagi aholiga vayronkor g'oyalarning singdirilishiga dalil hisoblanadi. Natijada nafaqat bu davlatlarda balkim yer yuzida millionlab insonlar qurbon bo'ldiki, bunday zararni insoniyat hech qachon unutmaydi.

Yaqin o'tmishda ham vayronkor g'oyalar dunyoning turli nuqtalarida bo'y ko'rsata boshladi, jumladan Yaqin Sharq, Afg'oniston, Shimoliy Kavkaz, Jazoir, Bolqon yarim oroli davlatlari ham g'oyaviy kurashlar poligoniga aylandi. Buzg'unchi g'oyalar terrorizm, ekstremizm, giyohvand moddalar va qurollar savdosi bilan uyg'unlashib ketdi. Aslida bu g'oyalar insoniyat tomonidan yaratilgan bo'lsada, aynan o'sha g'oyalar natijasida insoniyat boshiga kelgan kulfatlarning chek-chagarasi bo'lmay qoldi.

Tan olish kerakki, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik doimo birga va kurashda bo'lgani kabi, o'z navbatida butun dunyoga yoyilgan ezgu, bunyodkor g'oyalar ham mavjud. Bunga "vatanparvarlik", "kattalarga hurmat", "jamoaga sadoqat", "ezgulik, odamiylik gumanizm g'oyasi", "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot" singari g'oyalar misol bo'la oladi. Eng asosiysi bu g'oyalarning tub negizi inson va uning qadr-qimmatini ulug'lashga borib taqalishi chin manoda inson qadri barcha narsadan ustunligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bunyodkor g'oyalar va vayronkor g'oyalarning doimiy kurashiga, vayronkor g'oyalar natijasida yuzaga kelgan misilsiz kulfatlarga qaramasdan, bunyodkor g'oyalar tufayli insoniyat necha ming yillardan beri ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi, jamiyatlar rivojlanib, davlatlar taraqqiy etdi. Keng ma'noda butun dunyoda tinchlik, baynalmillik, o'zaro hurmat, sifatli ta'lim g'oyalari shakllanib, yer yuzidagi davlatlar, xalqlarni o'z ortidan ergashtira boshladi. Buning natijasida yuqoridagi g'oyalarning targ'ibotchilari va himoyatchilari paydo bo'ldi va dunyoda yetakchi mavqeyni egalladi. Zero bir narsa aniq bunyodkor g'oyalarni milliy g'oyaga aylantirib davlatlarni rivojlantiradigan ham, vayronkor g'oyalarni yoyish orqali davlatlarni parokandalikka olib keldigan ham insonlarning o'zidir. Shunday ekan bugungi tahlikali zamonda bunyodkor g'oyalarni targ'ib qilib, ularga amal qilib o'zimizni va insoniyatni farovonlik sari boshlashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.M.Mamatqulov “Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi” T.: “Toshkent” 2023-yil
2. Q. Nazarov “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy xususiyatlar, falsafiy va tarixiy ildizlari” T.: “Toshkent” 2001-yil
3. Q. Nazarov “G’oya va mafkura” T.: “Toshkent” 2001-yil